
Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlar bajarilishi to'g'risida MA'LUMOT

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PQ-5072-sonli, Oliy Majlis Senati Kengashining 2022-yil 18-apreldagi KQ-334-IV-sonli qarorlariga muvofiq "Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlar bajarilishi" to'g'risidagi qarorlariga asosan 2022-yil 2-bosqichida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga jami 13 mlrd 445 mln.so'm mablag'lar shakllantirilgan.

Jamoatchilik fikri bo'yicha 171 ta takliflarni "Ochiq byudjet" axborot portaliga joylashtirgan. Ushbu 171 ta takliflardan 57 tasitadsiqlangan nizom talablariga mos emasligi sababli rad etilib, 114 ta takliflar ovoz berish jarayoni uchun qabul qilingan. Shundan eng ko'p ovoz to'plagan 23 ta 13 mlrd. 253 mln.so'mlik takliflar g'olib deb topilgan.- Halq ta'limi bo'yicha 2 ta taklifga jami 1 mlrd 140 mln.so'm maktablarning ta'mirlash ishlari uchun yo'natirilgan bo'lib xozirgi kunda ta'mirlash ishlari to'lik amalga oshirilgan va mablag'lar 100% to'lik moliyalashtirilgan.

- Maktabgacha ta'lim bo'yicha 1 ta taklifga jami 150 mln so'm maktabgacha ta'lim tashkilotini ta'mirlash uchun yo'naltirilgan bo'lib xozirgi kunda ushbu loyixa bo'yicha shartnoma tuzilib 100% mablag'i oliyalashtirilgan, ta'mirlash ishlari to'liq amalga oshirilgan.- Obodonlashtirish yo'nalishi bo'yicha jami 8 ta taklifga 5 mlrd.283 mln.so'm yo'naltirilgan.

Bundan, 7 ta taklif jami 4 mlrd. 876 mln.so'm shahrimizdagi ichki yo'llarni asfaltlashtirish xarajatlariga ajratilgan, xozirgi kunda 5 ta loyixa bo'icha 100% ishlar bajarilib, mablag'lar to'liq moliyalashtirilgan. Qolgan 4 ta loyixa bo'yicha shartnomalar tuzilib 30% oldindan to'lov mablag'lari moliyalashtirilgan bo'lib xozirgi kunda ta'mirlash ishlari amalga oshirilmoqda.

- Sport kompleksi tashkil etish uchun 4 taklifga 1 mlrd so'm yo'naltirilgan bo'lib, xozirgi kunda 2 ta loyixa bo'yicha ishlar tuliq yakunlanib 100% mablag' moliyalashtirilgan. Qolgan 2 ta loyixalar bo'yicha 30% mablag'lari moliyalashtirgan bo'lib ta'mirlash ishlari davom etmoqda.

- Ko'p qavatli uylarni ta'mirlash ishlari uchun 6 ta taklifga 4 mlrd. 230 mln.so'm yo'naltirilgan bo'lib, xozirgi kunda ishlar to'liq bajarilgan va 100% mablag'lari moliyalashtirgan.

- Farg'ona shahar SEO va JSB 9 xil tibbiy jixoz sotib olish uchun 850 mln.so'm yo'naltirgan bo'lib, xozirgi kunda ushbu tibbiy jixozlar to'liq sotib olindi.- Farg'ona viloyat axborot-kutubxona markazi moddiy texnika bazasini mustaxqamlash uchun jami 600 mln.so'm mablag' ajratilgan bo'lib, sotib olingan asosiy vositalar uchun mablag'lar to'liq moliyalashtirilgan.

2023-04-11 17:14:21